



UO'K: 94:323 (575.1) "1917/1938"

Oybek RASHIDOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, tarix fanlari doktori

Tarix fanlari doktori, DSc, professor A.Ermetov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA SOVET BOSHQARUVI STRUKTURASIDAGI MAHALLIYLASHTIRISH SIYOSATINING YANGI BOSQICHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda sovet boshqaruvi strukturasi mahalliy lashtirish siyosatining yangi bosqichi tahlil qilindi. Mahalliy lashtirish siyosatining yangi bosqichida uch yillik reja asosida ish olib borilib, sohada ba'zi ijobiy o'zgarishlar yuz berganligiga e'tibor qaratildi. SHuningdek, arab grafikasidagi o'zbek yozuvidan lotin imlosiga o'tilishi jarayoni manbalar asosida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Mahalliy lashtirish, lotin imlosi, savodsizlik, oz sonli millatlar, mentalitet, tendensiya, milliy siyosat, millatchilik, totalitar, demografiya.

НОВЫЙ ЭТАП ПОЛИТИКИ КОРЕНИЗАЦИИ В СОВЕТСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СТРУКТУРЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье анализируется новый этап политики коренизации в советской системе управления Узбекистаном. Отмечается, что новый этап политики коренизации осуществлялся на основе трёхлетнего плана, и в этой области произошли некоторые позитивные изменения. Также на основе источников изучен процесс перехода от узбекской письменности на арабской графике к латинской орфографии.

Ключевые слова: Локализация, латинская орфография, неграмотность, национальные меньшинства, менталитет, тенденция, национальная политика, национализм, тоталитаризм, демография.

A NEW STAGE OF LOCALIZATION POLICY IN THE SOVIET STATE STRUCTURE OF UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the new phase of localization policy in the Soviet system of governance in Uzbekistan. It notes that this new phase of localization policy was implemented based on a three-year plan, and some positive changes occurred in this area. The transition from the Uzbek written language based on Arabic script to Latin orthography was also examined using source materials.

Key words: Localization, Latin orthography, illiteracy, national minorities, mentality, trends, national policy, nationalism, totalitarianism, demography.

Kirish. O'zbekiston SSR tashkil topgan dastlabki yillarda hukumat oldida mahalliy lashtirish borasida to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish hamda mazkur sohani ijobiy tomonga yo'naltirish kabi muhim vazifalar turar edi. Dastavval davlat idoralarida ish yuritishni mahalliy tillarda olib borish borasida qator tadbirlar amalga oshirish lozimligi belgilanib olindi. Jumladan, 1926-yil 2-noyabrda O'zbekiston MIK Prezidiumi kotibiyati 60-raqamli buyrug'ining 4-moddasida quyidagicha keltiriladi: "Ish yurgizishni erlashtirish, ya'ni ruscha va o'zbekcha tilda qo'yish xususidagi bir necha marotaba takrorlangan qarorlar va tekshirishlarni tashkil etib, O'zbekiston SSR MIK butun shu'balarga hamda markaziy ijroiya qo'mitasi huzuridagi komissiyaning mas'ul kotiblari ushbu kundan e'tiboran Markaziy ijroiya qo'mitasidan o'zbekcha tarjima qilinmagan rus tilidagi yozishmalarning biror donasi chiqmasligi ta'minlansin. Markaziy ijroqo'm umumiy shu'basining daftari (registratsiya)ga tegishli bo'lgan pochta tarjima qilinmagan holda ma'lum qilinmasin"[1]. Mazkur tadbir davlat idoralarini mahalliy lashtirish tizimida faqat ish yuritish bilan belgilanib, boshqaruvda mahalliy xodimlarning salmog'i masalasi e'tibordan chetda qolganligini ko'rsatadi.

Mahalliy lashtirish siyosatining yangi bosqichida arab imlosi o'rnini lotin yozuvi egalladi. 1926-yilda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komitetining IV sessiyasida birinchi marta yangi o'zbek (lotin) alfaviti masalasi

muhokama qilingan edi[2]. Ushbu sessiyada lotin alfaviti Markaziy Komitetini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu komitetning ishiga O'zSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti raisi Y.Oxunboboev rahbarlik qildi. Ayni vaqtda mahalliy ijroiya komitetlari huzurida ham ana shunday komitetlar tuzildi. 1927-yilda yangi alfaviti Butunittifoq Markaziy Komiteti ham tashkil etildi. Yangi o'zbek (lotin) alifbosi 1927-yil 28-29-mayda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan o'zbek, qozoq va qirg'iz jumhuriyatlari vakillarining kengashida qabul qilingan [3].

Yangi alfavitni tez fursatda joriy qilish maqsadida O'zbekiston SSR hukumati lotin alifbosini amalga oshirish rejasini ishlab chiqdi. Unga binoan maktablarda yangi alifbo asosida dars o'tish, savodsizlikni bitirish, o'qituvchilarni tayyorlash, mayda millatlar orasida ushbu alifboda ishchilarni tayyorlash, to'garaklar tashkil etish va idora ishchilarini hozirlash masalalari belgilandi. Shuningdek, maorif muassasalarida, notarial ishlarda, davriy matbuotda, noshirlik ishlarida ham lotin imlosining o'rnini belgilanib, adabiyotlar, darsliklar va qo'llanmalar ushbu yozuvda chiqarilishi qayd etilgan [4].

Respublikada lotin yozuviga o'tish rejasiga binoan bu ishlarni ikki yillik muddatda, ya'ni 1928/29 o'quv yildan boshlanib, 1929/30 o'quv yili oxirigacha etkazish belgilandi. Shu tariqa 1929-yilning 1-dekabr sanasida O'zbekiston SSRda arab alifbosidan lotin yozuviga o'tildi [5].

Yangi o'zbek alfaviti Markaziy Komiteti 1928-yil yanvaridan "Alanga" nomli adabiy-badiiy jurnal nashr eta boshladi. O'sha yilning avgustidan boshlab "Qizil O'zbekiston" gazetasiga ilova tarzda "Qizil tamg'a" nomli haftalik gazeta chiqib turdi[6]. 1929-yilning 1-fevralidan boshlab, O'zbekiston SSR hududida o'zbek, tojik, uyg'ur, yahudiy tillarida 11 ta gazeta hamda 7 ta jurnal lotin imlosida chop etilishi yo'lga qo'yildi. Jurnallardan "Kommunist"(15 ming nusxa), "Mushtum"(15 ming nusxa), "Yangi qishloq"(4 ming nusxa), "Maorif va o'qituvchi"(4 ming nusxa), "Xudosizlar"(4 ming nusxa) chop etildi. Mazkur nashrlar dinga qarshi targ'ibot va tashviqot qilish, diniy bayramlar, urf-odatlar, an'analar hamda arab imlosida yaratilgan durdona asarlarning xalq uchun "zararli" ekanligini tushuntirishga xizmat qildi. Shunday qilib, 1920 – 1930-yillarda dinga qarshi kurash shiori ostida olib borilgan ayrim beboshliklar natijasida xalqimiz qo'lida saqlab kelinayotgan ko'pgina nodir qo'lyozmalar yo'qolib ketdi. O'sha yillarda ahvol shu darajada keskinlashib va xavfli tus olib ketgan ediki, kimning uyida arabcha yozuvdagi bir-ikki kitob topilsa, uni so'rab-surishtirib o'tirmay qamashaverdi. Islom diniga qarshi kurash bahonasida qanchadan-qancha nodir kitoblar yo'qotildi [7].

Lotin imlosiga o'tish masalasi bo'yicha mamlakatda aholi orasida etarlicha tushuntirish ishlari olib borilmadi. Natijada yangi alfavit eski arab yozuvi tarafdorlari qarshiligini keltirib chiqardi. Ba'zi joylarda diniy peshvolar, ruhoniylar va islom e'tiqodida bo'lgan mahalliy aholi arab alfavida qolishni lozim ko'rib, lotin imlosida ta'lim olishni kofirlik deb atadilar. Sovet davri adabiyotlarida keltirilishicha lotin alfavida dars beradigan o'qituvchilarning hayoti xavf ostida qolgan. Masalan, 1928-yilda Asakada ruhoniylar qishloq maktabiga o't qo'ymoqchi va yangi alfavitda dars bergani uchun o'qituvchini o'ldirmoqchi bo'lishgan [8]. Bu kabi qarshiliklar bolsheviklarni lotin imlosi masalasida murosas qilishga majbur etgan. Shuning uchun hukumat tomonidan arab va lotin yozuvida ishlarni barobar olib borishga ruxsat berilgan [9]. Shu tariqa yangi yozuvga o'tilgan dastlabki yillarda respublikadagi ish yuritish va hujjatchilik ishlari 3 ta: krill, arab va lotin imlolarida olib borildi.

Ish yuritishda o'zbek tilining o'rni belgilangan bo'lsa-da, ta'lim va maorif tizimida sezilarli o'zgarish qilinmadi. Bu borada mahalliy millat vakillaridan biri shunday deydi: "Bizning kutubxonamizda o'zbek tilida kitoblar yo'q. Biz faqat "Qizil O'zbekiston" gazetasini bilamiz. Rus tilida nashr etilgan adabiyotlarni ko'pchilik o'zbeklar tushunmaydi" [10].

1928-yili Butunittifoq KP MIK vakillari tomonidan amalga oshirilgan O'rta Osiyoda ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkazish va muassasa hamda tashkilotlarni mahalliyalashtirishni tekshirish natijalari to'g'risidagi ma'ruzada O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti mahalliyalashtirishda yomon ibrat bo'layotganligi keltirilib, uning okrug ijroqo'mi bilan aloqalarini 90 foizga (ortiq darajada) rus tilida olib borayotganligi tanqid qilingan[11]. Mazkur ma'ruzada O'zkomunalbank, O'zdavlatqurilish 1927-yildan parallel ish yuritishni amalga oshirgan bo'lsa-da 1928-yilda u bekor qilinganligi, O'zdavlatrejalashtirish, O'rta Osiyo tijorat banki, Avtosanoatsavdo (Avtopromtorg), Kreditbyuro va boshqalar ish yuritishni parallel ravishda olib borishni (to'rtinchi yil) xayoliga ham keltirmayotganligi ta'kidlangan. Shuningdek, qator muassasalar (O'zdavlat nashriyoti (UzGIZ), Sog'liqni saqlash xalq komissarligi, Markaziy statistika boshqaruvi (SSU), O'zbek davlat savdo, Qishloq xo'jalik banki) shtatida tarjimon, o'zbekcha mashinkalar va mashinistkalar ega bo'la turib, ish yuritishni 90 foizga rus tilida olib borayotganligi keltirilgan [12].

Davlat idoralarini mahalliyalashtirish siyosatining birinchi bosqichi 1923 – 1927-yillarni o'z ichiga olib, bunda asosan ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkazishga harakat qilish bilan tavsiflanadi. Boshqaruvda milliy kadrlar

tayyorlash va ularni turli muassasalarga munosib tarzda joylashtirish e'tibordan chetda qoldirildi. 1928-yil boshlarida O'zbekiston SSRda mahalliyalashtirish ishlari yangi bosqichga ko'tarish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

1928-yil 21-yanvar kuni O'zbekiston SSR MIK Prezidiumi O'zbeklashtirish bo'yicha komissiyaning ma'ruzasini tinglab, qator muassasalarda va birinchi navbatda keng omma bilan bevosita bog'liq muassasalar (okrug ijroqo'mi, tuman ijroqo'mi)da ish yuritishni o'zbek tiliga to'liq o'tkazishni nihoyatda muhim deb e'tirof etdi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, qishloq sovetlari va tuman ijroqo'mlarida ish yuritishni o'zbek tiliga to'liq o'tkazish, aralash tumanlarda parallel tarzda olib borilishini ta'minlash ko'rsatilgan. Shuningdek, qarorda aholi orasida tojiklar ko'p bo'lgan tumanlarda davlat apparatini tojiklashtirish talabi ham ilgari surilgan [13].

1928-yil 18-fevralda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining "Davlat apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida"gi 20-raqamli qo'shma qarori qabul qilindi. Ushbu qaror 10 ta banddan iborat bo'lib, bunda davlat boshqaruvining barcha jabhalarida ish yuritishni o'zbek va boshqa mahalliy tillarda olib borish, evropa millatiga mansub xodimlarning o'zbek tilini o'rganishi uchun to'garaklar ochish va mahalliy aholidan ishchi kadrlarni tayyorlash kabi muhim masalalar kiritildi [14].

Qarorda xodimlar malakasining etarli emasligi, evropaliklarni majburiy ravishda o'zbek tiliga o'rgatish va uni o'rganishni rag'batlantiruvchi qonun loyihasini ishlab chiqish masalasi ilk bor qo'yildi. O'zbekiston SSR Jinoyat Kodeksiga idoralarni mahalliyalashtirish to'g'risidagi qarorlarni bajarmaganlarni jazolovchi modda kiritish to'g'risida nizom ilgari surildi[15]. Mazkur qo'shma qarorning qabul qilinishidavlat idoralarini mahalliyalashtirish ishini yangi bosqichga olib chiqdi. Shundan so'ng O'zbekiston SSRdagi barcha nozirliklar va muassasalarda ish yuritishni o'zbek tilida olib borish hamda mahalliy millat vakillarini boshqaruvga keng jalb qilish borasida ma'lum ishlar amalga oshirildi. Bu borada O'zbeklashtirish komissiyasining Samarqand bo'limidatomonidan 20-raqamli qaror ijrosi yuzasidan berilgan hisobotda quyidagilar keltiriladi: "O'zbeklashtirish to'g'risida hukumatning 1928-yil fevral oyida chiqarilgan qat'iy qaroridan keyin okrug o'zbeklashtirish komissiyasi o'zining rejasini o'zgartirib idora va ishchilarni to'g'ridan-to'g'ri tub millatdan chiqqan ishchilar bilan to'ldirishga kirishdi. 3-martdan 30-aprelgacha okrug miqyosida idoralarga tub millat xalqidan 94 ishchi joylashtirildi. Bundan tashqari mazkur muddat ichida mehnat birjasi orqali turli ishlarga 117 kishi yuborildi. Ishga qo'yilgan 200 dan ortiq ishchining hammasi yoshlar va kasaba a'zolari hisoblanadi" [16].

O'zbekiston SSR MIKning 1928-yil fevraldagi qarori bilan O'zSSR Jinoyat kodeksining 155 moddasini quyidagi qism bilan to'ldirish belgilandi: "Davlat apparati va sanoatni o'zbeklashtirish masalasida mansabdor shaxslarga qonuniy jihatdan yuklatilgan vazifalarni bajarmaslik, shuningdek, bu vazifalarni bajarishga e'tiborsizlik, sovuqqon va vijdotsizlarcha munosabatda bo'lish yoki sun'iy ravishda bunday holatlarni yuzaga keltirish, belgilangan choralarni chetlab o'tish hamda ushbu tadbirlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan turli harakatlarga jazo choralari ko'riladi"[17]. Shu tarzda o'zbeklashtirish ishlari samarali tashkil etishning huquqiy asosi ham mustahkamlanib borildi.

Davlat idoralarini mahalliyalashtirish sohasida qabul qilingan 20-raqamli qarorning boshqa qarorlardan yana bir farqi shundaki, uning «g»bandidaaholi orasida tojiklar ko'p bo'lgan tumanlarda davlat idoralarini tojiklashtirish talabi ilk bor ilgari surildi. Xususan, O'zbekiston SSRning Xo'jand okrugidagi davlat idoralarida ish yuritish 3 ta – rus, o'zbek va tojik tillarida olib borilishi joriy qilindi [18].

O'zbekiston SSR MIKning 1928-yil 3-apreldagi majlisi 32/10-bayonnomasining ko'chirmasida keltirilishicha, ikki hafta muddatda qo'mita markaziy apparatida o'zbek tilini biladigan xodimlar bilan to'ldirishi lozimligi belgilangan. Evropa millatiga mansub xodimlar 7 oy davomida o'zbek tilini o'rganishga majbur qilinishi va undan bosh tortganlar ishdan bo'shatilishi haqida ogohlantirilgan [19].

1928-yil 17-mayda bo'lib o'tgan o'zbeklashtirish bo'yicha Markaziy komissiya majlisida O'zbekiston SSR MIKning hisoboti eshutiladi. Bunda davlat idoralarini o'zbeklashtirish va ish yuritishni o'zbek tiliga o'tkazish to'g'risidagi 20-raqamli qaror asosida MIKda amalga oshirilgan ishlar xususida quyidagilar ta'kidlangan: Mazkur qaror qabul qilinishidan oldin O'zbekiston SSR MIK apparatida 76 ta shtat birligi mavjud bo'lib, ushbu miqdor saqlanib qolgan. Milliy tarkib bo'yicha o'zbeklardan 25 xodim

o'rni 30 nafarga etgan. Evropalik xodimlar 51 nafardan 46 nafarga qisqargan. Ushbu markaziy idorada mahalliy kadrlar salmog'i qariyb 40 foizga etgani qayd etilgan [20].

Xulosa. O'zbekiston SSR tashkil etilgan dastlabki yillarda hukumat oldida davlat idoralarini o'zbeklashtirish borasida to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish vazifasi ko'ndalang bo'lib turgan. Davlat idoralarini mahalliyalashtirish siyosatining yangi bosqichi evropa millatiga mansub xodimlar uchun to'garaklar va kurslar tashkil etilganligi va mahalliy kadrlarni tayyorlashda 3 va 6 oylik o'quv kurslari tizimli tashkil etilganligi hamda ba'zi muammolar bartaraf etilganligi bilan xarakterlandi. Shuningdek, muassasalarda amaliyot o'tayotgan tajribachilarga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Ular mehnatiga haq to'lash tizimining joriy etilishi hamda har qanday kamsitilishlarga qonuniy jazoning muqarrarliligi ta'minlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 3654-yig'ma jild, 4-varaq.
2. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 4488-yig'ma jild, 1-varaq.
3. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 4497-yig'ma jild, 2-varaq.
4. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 4486-yig'ma jild, 14-29-varaqlar.
5. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврдан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2015.– Б.200.
6. Қориниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1956. – Б.238.
7. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати (1917 – 1960 йиллар). – Тошкент: “Тафаккур”, 2015.– Б.67.
8. Қориниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1956. – Б.238-239.
9. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 3654-yig'ma jild, 152-varaq.
10. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 5182-yig'ma jild, 14-varaq.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administrasiyasi arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-yig'ma jild, 7-varaq.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administrasiyasi arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-yig'ma jild, 8-varaq.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administrasiyasi arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-yig'ma jild, 5-varaq.
14. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 5194-yig'ma jild, 19-20-varaqlar.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administrasiyasi arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-yig'ma jild, 5-varaq.
16. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 5182-yig'ma jild, 13-varaq; O'zbeklashtirish ishlari // “Qizil O'zbekiston” gazetasi. 1928 yil 11 may, 105-son.
17. O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro'yxat, 5164-yig'ma jild, 46-varaq; O'zR PAA, 58-fond, 4-ro'yxat, 492-yig'ma jild, 230- varaq.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administrasiyasi arxivi, 58-fond, 5-ro'yxat, 174-yig'ma jild, 8-varaq.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administrasiyasi arxivi, 58-fond, 4-ro'yxat, 494-yig'ma jild, 50-51-varaqlar.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administrasiyasi arxivi, 58-fond, 4-ro'yxat, 493-yig'ma jild, 5-varaq.